

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 06 | pp. 180-186 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

BYUDJET HISOBI TUSHUNCHASI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Jumakulov Shuxratjon Zamirovich,
e-mail: shuhratjon.jumakulov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola byudjet hisobi tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etishga bag‘ishlangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi odatiy xo‘jalik yurituvchi subyektlardagi buxgalteriya hisobidan farqlovchi jihatlariga e‘tibor qaratishdan iborat. Shuningdek muallif ushbu maqola doirasida byudjetdan moliyalashtiriladigan idoralarda, muassasalarda, tashkilotlarda va davlat korxonalarida buxgalteriya bo‘limining asosiy o‘ziga xos xususiyatlariga urg‘u berib, bu to‘g‘risida fikr yuritgan.

Kalit so‘zlar: byudjet tizimi, buxgalteriya hisobi, byudjet hisobi, byudjet tashkilotlari, moliya bo‘limi, g‘aznachilik, davlat byudjeti, byudjet hisoboti.

ПОНЯТИЕ БЮДЖЕТНОГО УЧЕТА И ЕГО СПЕЦИФИКА

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию понятия бюджетного учета и его специфики, основной целью которого является акцентирование внимания на тех аспектах, которые отличают его от бухгалтерского учета в обычных хозяйствующих субъектах. Также в рамках данной статьи автор рассуждал об этом, выделяя основные особенности бухгалтерского учета в учреждениях, организациях и государственных предприятиях, финансируемых из бюджета.

Ключевые слова: бюджетная система, бухгалтерский учет, бюджетный учет, бюджетные организации, финансовый департамент, казначейство, государственный бюджет, бюджетная отчетность.

THE CONCEPT OF BUDGET ACCOUNTING AND ITS SPECIFICS

Abstract. This article is devoted to the study of the concept of budget accounting and its specifics, the main purpose of which is to focus on those aspects that distinguish it from accounting in ordinary business entities. Also in the framework of this article, the author discussed this, highlighting the main features of accounting in institutions, organizations and state-owned enterprises financed from the budget.

Keywords: budget system, accounting, budget accounting, budget organizations, finance department, treasury, state budget, budget reporting.

Kirish qismi. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini shakllanishi davrida tijorat tashkilotlarining niqtadi nazaridan ularning asosiy maqsad foyda olish

hisoblanadi. Shu bilan birgalikda biz davlat niqtadi nazaridan yana bir tizimni hisobga olishimiz darkor bu byudjet tizimi uning maqsadi va vazifalari davlatning ehtiyojlarni ta'minlashdan iboratdir. Birinchi holda, tadbirkorlik subyektlari tovarlar va xizmatlarni ko'rsatish sotish, investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish orqali mablag'larni harakatga keltirib foyda olishga intiladi. Ikkinchi holda, muassasa davlat va mahalliy hokimliklarning moliyalashtirish orqali mablag' bilan ta'minlanadi bu subsidiyalashdir. Shu nuqtada biz aniq tushunishimiz kerakki ushbu ikki turdagi tashkilotlarning konseptual nuqtai nazardan bir birdan tubdan farq qiladi, bu o'z navbatida ularning buxgalteriya hisobidagi farqlarga ta'sir qiluvchi asosiy omil hisoblanadi.

Biroq shu bilan birgalikda tijorat subyektlari va byudjet tuzilmalari uchun asosiy prinsiplar o'zgaraydi. Ikkala holatda ham naqd pul, zaxiralar va majburiyatlar hisobga olinadi. Faoliyat natijasi hisobotlar ko'rinishida shakllantiriladi va tegishli tartibda aks ettiriladi hamda nazorat organlariga taqdim etiladi, yuboriladi.

Davlat korxonalari, shu jumladan mahalliy hokimliklar, byudjet tashkilotlari moliya bo'limlarining g'aznachiligi orqali moliyalashtiriladi ya'ni davlat byudjetida mablag'lar ajratiladi va moliya ularni taqsimlaydilar. Davlat korxonalari, shu jumladan mahalliy hokimliklar, byudjet tashkilotlari o'z me'yoriy hujjatlari bilan tijorat subyektlaridan farq qiluvchi va bir qator nuanslarga egadir shu boisdan ular ixtisoslashtirilgan byudjet hisobini yuritishni talab etadi. Bundan kelib chiqadiki byudjet hisobi davlat byudjetidan to'liq yoki qisman moliyalashtiriladigan tashkilotlarda yuritiladi. Davlat korxonalari, shu jumladan mahalliy hokimliklar, byudjet tashkilotlari va muassasalarida mablag'lar harakati, amortizatsiya hamda inventarizatsiya bo'yicha operatsiyalarni aks ettiruvchi buxgalteriya hujjatlarini yuritish tizimi byudjet hisobi hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan va ulardagi jarayonlarini hisobga olgan holda bir qator asosiy farqlarni keltirib o'tsak:

- ushbu tashkilotlarda ikki xil ko'rinishdagi jadvallardan, hisobotlardan foydalaniladi va qo'llanadi;
- davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar umumiy bir xil buxgalteriya hisobidan foydalaniladi, tijorat subyektlari o'z xususiyatiga qaran uni o'zgartirishi va qo'llanilishi mumkin: ishlab chiqarish, savdo yoki qurilish;
- byudjet tashkilotlari va muassasalari hamda tijorat subyektlarining buxgalteriya hisobidagi schyotlari turlicha ularning nomlari, soni odatda farq qiladi;
- byudjet tashkilotlari va muassasalarida asosiy urg'u xarajatlar hisobini avtorizatsiya qilishga bag'ishlangan, tijorat subyektlarida esa bu masala korxonalar hisob siyosatidan kelib chiqqan holda hal etiladi.

Yuqoridagilarga muvofiq shuni aytish mumkinki byudjet tashkilotlari va muassasalari ancha katta hajmdagi hisobotlarga ega va u qisqa vaqt ichida topshirilishi kerak, bundan tashqari ular belgilangan tartibda shakllarda oylik, choraklik va yillik hisobotlarni shakllantiradi kerakli o'rganlarga taqdim etadi. Ularda birinchi galda moliyaviy-xo'jalik faoliyati rejasining bajarilishi, qarzlarning miqdori va joriy hisobvaraqaqidagi qoldiqlar to'g'risidagi ma'lumotlar asosiy o'rinni egallaydi. Bu ularning balansi ham hisobotlarida ham ko'rinadi va ro'yxatiga kiritiladi. Tijorat

korxonalari uchun odatiy shakldan farqli o'laroq, u maqsadli mablag'lar bilan operatsiyalar to'g'risida batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Byudjet tuzilmalari o'z faoliyatini asosan davlat subsidiyalari hisobidan amalga oshiradi. Shuning uchun buxgalteriya hisobida maqsadli mablag'larni olish va ulardan foydalanish hamda moliyaviy rejalarni amalga oshirish to'g'risidagi ma'lumotlarga alohida e'tibor beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Byudjet hisobi haqida fikr yuritganda biz ko'proq davlat byudjeti tizimi bilan bog'liq masalalarni ko'rishimiz mumkin, buni "Byudjet hisobi" termini va uning ta'rifiga berilgan soha olimlarning ilmiy izlanishlari hamda asarlarida, ilmiy tadqiqotlarida, ishlanmalarida o'z isbotini topadi. Misol tariqasida yurtimiz olimlari I.N. Qo'ziyev, Sh.V. G'aniyev va A.S. Ramazonov muallifligidagi "Byudjet hisobi va nazorati" nomli darsligida keltirilgan ta'rifni keltirish mumkin: "Byudjet hisobi va nazorati -byudjet tizimi byudjetlarini ijro etishda hisobga olinadigan, pulda ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning, shuningdek mazkur aktivlar va majburiyatlarni o'zgartiruvchi operatsiyalarning holati to'g'risidagi axborotni to'plash, ro'yxatdan o'tkazish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidir" [2].

Yana bir yurtimizning taniqli olimi M. Ostonaqulov muallifligidagi "Byudjet hisobi" nomli darsligida berilgan ta'rif "Byudjet hisobi davlat byudjeti ijrosining buxgalteriya hisobidir. Byudjet hisobi davlat byudjeti ijrosi bilan bog'liq bo'lgan hamma operatsiyalarni qamrab oladi va mazkur ijro jarayonida byudjetning holatini tavsiflashni ta'minlaydi. Byudjet hisobi orqali xalq xo'jaligi hamma tarmoqlarining davlat byudjeti bilan o'zaro aloqasi aks ettiriladi. Buxgalteriya hisobi vositasida bank muassasalaridagi hisob-varaqlarda byudjetning pul mablag'lari, daromadlari va xarajatlari, hisob-kitoblardagi mablag'lar, byudjet ijrosi jarayonida tashkil qilinadigan fondlar va zaxiralar hamda byudjet tashkilotlarining moddiy qiymatliklari aks ettiriladi. Byudjetning daromadlari, xarajatlari va pul mablag'lari, byudjet ijrosi jarayonida ularning harakati hamda byudjetdan moliyalashtiriluvchi tashkilotlarning moddiy qiymatliklari byudjet hisobining bevosita obyektlari hisoblanadi" [3].

Rus olimlari O.Ye. Kachkova va T.I. Krishtaleva muallifligidagi "Byudjet hisobi" nomli darsligida "Byudjet hisobi-bu byudjet jarayoni ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalar holati to'g'risida pul ko'rinishida ma'lumotlarni to'plash, ro'yxatdan o'tkazish va umumlashtirishning uzluksiz, tartibli tizimi" [4] deb ta'riflanadi, bu ta'rif Rossiya federatsiyasining Byudjet kodeksidan olingan.

Yurtimiz qonunchiligida ham "Byudjet hisobi" to'g'risida aniq ta'rif berilgan va u O'zbekiston respublikasi moliya vazirining "O'zbekiston respublikasi byudjet hisobining standarti (1-sonli BHS) "Hisob siyosati"ni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'ida keltirilgan "Byudjet hisobi – byudjet tizimi byudjetlarini ijro etishda hisobga olinadigan, pulda ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning, shuningdek mazkur aktivlar va majburiyatlarni o'zgartiruvchi operatsiyalarning holati to'g'risidagi axborotni to'plash, ro'yxatdan o'tkazish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimi" [1].


Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda dialektik tahlil, induksiya-deduksiya va ilmiy ma'lumotlarni tizimlashtirish kabi metodologik usullardan foydalanilgan, bundan tashqari ilmiy tadqiqotning nazariy va uslubiy bazasini mustahkamlash

maqsadida mavzuga oid, ilmiy asarlar, iqtisodiy fanlar bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, ilmiy konferensiyalar materiallari tizimli yondashuv usuli yordamida tadqiq etildi.

Tahlil va natijalar. Biz byudjet hisobi haqida fikr yuritganda uning o'ziga xos xususiyatlarga egaligini hisobga olishimiz darkor, bu uning byudjet tuzilishi va byudjet jarayoni to'g'risidagi qonun hujjatlari, byudjet hisobi bo'yicha ko'rsatmalar, byudjet tashkilotlari, muassasalarida buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinishi tufayli vujudga keladi.

Shunday ekan byudjet hisobi-bu davlat hokimiyati organlari, davlat byudjetdan tashqari fondlarini boshqarish organlari, hududiy davlat byudjetdan tashqari fondlarini boshqarish organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, byudjet muassasalari va olib boradigan operatsiyalarning moliyaviy, nomoliyaviy aktivlari, majburiyatlari holati to'g'risidagi ma'lumotlarni pul ko'rinishida to'plash, ro'yxatdan o'tkazish hamda umumlashtirishning tartibli tizimi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz byudjet hisobining asosiy vazifalariga e'tirof etishimiz mumkin (1-rasm).




1-rasm. Byudjet hisobining asosiy vazifalari.

Shu o'rinda byudjet hisobi tashkil etish va yuritish bo'yicha mas'ul shaxs bu muassasa rahbarlari hisoblanadi, u moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishga va buxgalteriya hujjatlarini saqlash bo'yicha amaldagi qonunchilikka rioya qilish uchun javobgardir.

Yana bir byudjet hisobining o'ziga xos jihatlaridan biri bu unga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq, ya'ni davlat byudjetdan moliyalashtiriladigan idora ishlatayotgan kommunal xizmatlar uchun moddiy-texnik guruh, rejalashtirish va moliya bo'limi, markazlashtirilgan hisob-kitoblar guruhi, yetkazib beruvchilar hamda pudratchilar bilan hisob-kitoblar bo'limi mas'ul hisoblanadi odatda buni 4 guruh deb ataladi, shuning bu guruh bo'yicha umumiy hisob-kitoblar amalga oshiriladi, har bir muassasa uchun alohida emas.

Shu o'rinda biz davlat byudjetdan moliyalashtiriladigan idoralarda, davlat muassasalarida, tashkiloti va korxonalarida byudjet hisobini yuritish bo'yicha


buxgalteriya bo‘limining asosiy vazifalari yaxshi anglashimiz kerak, fikrimizcha ular quyidagilardan iborat (2-rasm).



2-rasm. Byudjet hisobini yuritish bo‘yicha buxgalteriya bo‘limining vazifalari.

Yuqoridagilarga asoslangan xolda shuni aytish mumkinki byudjetdan moliyalashtiriladigan idoralarda, davlat muassasalarida, tashkiloti va korxonalarida buxgalteriya bo‘limining vazifalariga hujjatlarning saqlanishini to‘liq nazorat qilish, me‘yoriy hujjatlarga muvofiq hisob-varaqlarda mablag‘lar va jihozlarning harakatini to‘g‘ri aks ettirish kiradi. Mablag‘lar harakatining yagona va aniq tizimini shakllantirish amalga oshiriladi bu UzASBO platformasi unda byudjet hisobi talablari, majburiyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni eng shaffof holda taqdim etishga erishiladi, moliya tizimining g‘aznachilik bo‘limlari bunda nazorat funksiyasini o‘taydi hamda mablag‘lar harakatini to‘liq boshqarishga asoslanadi. Pul mablag‘larini olish uchun arizalarni oldindan yuborish va ularni rahbariyat imzolari bilan tasdiqlash kerak. Byudjetdan moliyalashtiriladigan idoralarda, davlat muassasalarida, tashkiloti va korxonalarida g‘aznachilik organlari tomonidan tekshirilmasdan mablag‘larni mustaqil ravishda hisobdan chiqib bo‘lmaydi.

Yuqoridagilarga asoslangan xolda yana shuni e‘tirof etishimiz zarurki byudjet hisobining o‘ziga xos asosiy xususiyatlari bor, fikrimizcha ular quyidagilardan iborat (3-rasm).



3-rasm. Byudjet hisobining asosiy xususiyatlari.

Shunday qilib yana bir o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tsak bu byudjet hisobi va hisobotning amaldagi soliq qonunchilik nuqtai nazaridan faoliyati, bunda byudjet hisobi davlat organlarining hisob siyosatini tashkil etadi, uning asosiy maqsadi tijorat tashkilotlari kabi foyda olish emas balki davlat byudjetidan ajratilgan mablag' boyicha to'g'ri va to'liq hisobotlar taqdim etishidan iborat.

Xulosalar. Umumiy xulosalarga keladigan bo'lsak davlat mablag'larining sarflanishi doimiy ravishda nazorat qilinadi. Byudjet hisobi davlat byudjetining harakatini ta'minlash uchun muhim vosita hisoblanadi, barcha fondlar boyicha to'lovlar aniq sxemalari orqali amalga oshiriladi. Barcha byudjet tashkilotlari bir xil turdagi hisobotlarni shakllantiradi va belgilangan tartibda tegishli o'rganlarga taqdim etadi. Shu bilan birgalikda tijorat va byudjetdan moliyalashtiriladigan idoralarda, muassasalarda, tashkilotlarda va davlat korxonalarining buxgalteriya balansida mablag'larni aks ettirishning o'ziga xos xususiyatlari yagona prinsip asosida shakllantiriladi.

Tijorat va byudjetdan moliyalashtiriladigan idoralarda, muassasalarda, tashkilotlarda va davlat korxonalarining soliq nazorati o'rtasidagi asosiy farqlar va o'xshashliklar mavjud biroq davlat sektori tashkilotlari va xususiy kompaniyalar uchun buxgalteriya hisobining umumiy qoidalarida sezilarli farqlarga yo'q. Xususiy kompaniyalarni moliyalashtirish har xil bo'lishi mumkin, masalan, depozitga qo'yilgan shaxsiy mablag'lar, banklardan berilgan kreditlar yoki aksiyadorlik jamiyati a'zolarining badallari. Davlat sektori faqat mahalliy yoki respublika byudjet tomonidan moliyalashtiriladi.

Davlat sektorida hisobot hajmi ancha katta, chunki har bir harakat qayd yetilishi va mablag'larning oqim shakllari batafsil ko'rsatilishi kerak. Xususiy kompaniyada joriy hisobvaraqaqlaridan tushumlar yoki debetlar mustaqil ravishda amalga oshiriladi va g'aznachilik organlarining ruxsati talab qilinmaydi. Ishlar va xizmatlar uchun to'lov nuqtai nazaridan xususiy kompaniya ko'proq mobil, ammo shu bilan birga noto'g'ri hisobdan chiqarishdan kamroq himoyalangan.

Byudjet tashkilotining buxgalteriya bo'limida ishlaydigan mutaxassislar va buxgalterlarga qo'yilgan talablar ma'lum davlat tomonidan ishlab chiqilgan normalar

bilan tartibga solinadi, xususi kompaniyalar esa bundan talablarni kompaniyaning o'zi tatbiq etadi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunga kelib byudjet hisobi tizimi doimiy ravishda takomillashtirilmogda, o'zgartirishlar kiritilmogda va yangi me'yoriy hujjatlar yaratilmogda. Respublika, viloyat, shahar, tuman davlat muassasalarida byudjet hisobi bo'yicha buxgalterlar doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirishi va malaka oshirish kurslari hamda o'quv seminarlarida qatnashishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining "O'zbekiston respublikasi byudjet hisobining standarti (1-sonli BHS) "Hisob siyosati"ni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i, 27.12.2016 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2853.
2. I.N. Qo'ziyev, Sh.V. G'aniyev, A.S. Ramazonov. Byudjet hisobi va nazorati: Darslik /; — T.: "Nihol print" OK, 2022. 632 b.
3. M. Ostonaqulov. Byudjet hisobi. — T.: "Talqin", 2008. — 424 bet.
4. Бюджетный учет: учебник / О.Е. Качкова, Т.И. Кришталева. — Москва: КНОРУС, 2024. — 352 с.
5. Tohirovich, Q. N. (2024). THE ROLE OF RENTAL RELATIONS IN THE FORMATION OF ENTREPRENEURSHIP. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 326-331.
6. Jumakulov, Z., & Kunduzova, Q. I. (2021). Financial Independence in the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan: Results and Conclusions. *Middle European Scientific Bulletin*, 19, 236-241.
7. Jumakulov, Z. I. (2022). Implementation of public private partnership relations in higher education institutions in Uzbekistan. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 104-108.
8. Jumakulov, Z. I., & Madaminov, A. M. (2022). Issues of implementation of the university 3.0 concept in Uzbekistan. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 81-83.
9. Jumakulov, Z. I. (2022). Issues of food security in Uzbekistan. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 246-249.
10. Кундузова, К. И. (2022). Совершенствовании государственного финансового контроля. *Zamonaviy fan, ta'lim va ishlab chiqarish muammolarining innovatsion yechimlari*, 88-91.
11. Муминова, Э. А., Кундузова, К. И., & Умаралиев, З. Б. (2018). Модернизации экономики и инновационного развития узбекистана. In *Научно-Технический Прогресс: Социальные, Технические И Общественные Факторы* (pp. 194-198).
12. Кундузова, К. И. (2023). Преимущества И Проблемы Перехода К Цифровой Экономике. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 4(1), 111-116.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

